

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
INSON RESURLARI VA MAHALLA
TARAQQIYOTINI BOSHQARISH
INSTITUTI



Ro'yxatga olindi:

№ BD-60410600-MM2405

2024-yil "10" 14

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024-yil " " "



"BANK MENEJMENTI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:

400000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohasi:

410000 – Biznes va boshqaruv

Ta'lim yo'nalishi:

60410600 – Bank ishi

[Handwritten signature]

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
BM1605	2026-2027	6	5
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Umumiy (soat)
	Bank menejmenti	64	86
			150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	I. FANNING MAZMUNI Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga bank menejment fani bo'yicha mustahkam nazariy va amaliy bilim berish, tajribalarni o'rgatish, banklarning faoliyatini boshqarish va oqilona moliyaviy siyosat olib borishni o'rgatishdir. Fanning vazifasi – talabalarga banklarda menejment asoslari, xususan banklar menejmentda qo'llanadigan usullar, ularning turlari, bank menejmentda moliyaviy qarorlarni qabul qilish asoslari, banklar aktivlarining mohiyati va ularni boshqarish tamoyillari, banklarda investitsion faoliyatni tashkil etish xususiyatlari, pul oqimlarini boshqarishning mohiyati va vazifalari hamda asosiy yo'nalishlari, bank faoliyatining amaldagi natijalarini baholash, moliyaviy risklarni miqdoriy baholash ko'rsatkichlari hamda banklarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvning mohiyatini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
M1	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) “Bank menejment” faning mazmuni va vazifalari Mamlakatimiz banklarining barqaror mavqei bank tizimiga bo'lgan ishonchning, xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank depozitlarida saqlanayotgan bo'sh pul mablag'lari hajmining barqaror yuqori sur'atlarda oshib borishiga marketing xizmatining ham salmoqli ulushi mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.
M2	Bank menejmentining huquqiy asoslari. Banklarning qayta tashkillashuvi, uning sanatsiyasi, birikuvi va tugatilishi

	natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bank faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan tashkiliy qayta qurish ichki va tashqi sabablar natijasida zarur bo'lib qoladi. Bank menejmentining huquqiy asoslari. Qaror qabul qilish zarurati mavjud holatning bo'lishi lozim bo'lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi. Masalan, davlat tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan narx bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z funksiyasini bajara olmaydi. Shu sababli narxlarni erkinlashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.
M3	
M4	Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil qilish asoslari Banklarning oldiga boshqa maqsadlar ham qo'yilishi mumkin. Operatsiyalar hajmini son va sifat jihatdan o'stirish, shuningdek, o'z kapitali va bank rezervlarini oshirib borish kabi maqsadlar bular jumlasidandir. Biroq, yuqorida aytib o'tilgan asosiy uchta maqsad ustuvor maqsadlar sirasiga kiradi.
M5	Tijorat banklari faoliyatini korporativ boshqarish Korporativ boshqaruv tushunchasi 1970-yillarning oxirida AQSHda qo'llanilgan. Buning sababi o'sha paytlarda AQSHdagi yirik kompaniyalar va firmalar siyosiy partiyalarni moliyalashtirish va korruptsiyaning rivojlanishi natijasida mulkni boshqarishning jamoaviy shakliga o'tishga majbur bo'lgan
M6	Tijorat banklari faoliyatini moliyaviy menejment Passiv operatsiyalar tijorat banklarining resurslarni jalb qilishi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari hisoblanadi. Buni depozitlar, banklararo kreditlar, qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish va boshqalar orqali amalga oshirishi mumkin
M7	Bank xodimlarni boshqarish tizimi. Kredit tashkiloti sifatida banklarda mijozlarga bank xizmatlarini to'g'ridan to'g'ri ko'rsatish, ular bilan aloqada bo'lish front ofis tomonidan amalga oshirilib, bankning bo'limlari va umuman bankning normal faoliyatini yuritishni ta'minlash bek ofis zimmasida bo'ladi. Mijozlar bilan ishlovchi xodimlar faqat o'z sohasiga taalluqli bilimlarni emas, balki muomala madaniyati, psixologik jihatdan va boshqa jihatlar bilan ajralib turishi lozim.
M8	Tijorat banklari faoliyatida marketing. Marketing ayirboshlash yo'li bilan ehtiyoj va talablarni qondirishga yo'naltirilgan inson faoliyatining turi, bozordagi barcha qatnashchilarning o'zaro manfaatlariga asoslangan harakatlarini, talabni shakllantirish va qondirish uchun birlashtirishdir.
M9	Korxonalarida inqirozga qarshi moliyaviy boshqarish yo'llari Tijorat banklari mahsulotining hayotiylik davrini uzaytirishda bozor mexanizmining asosiy elementlari bo'lgan, tovarlar taklifi, xaridorlar

	talabi, narx-navo, ya'ni bahoni, bir-biri bilan mahkam bog'langan holda, marketing tadqiqotlarini o'tkazish lozim.
M10	Tijorat bankning mijozlar bozori Ideal mijoz yirik miqdordagi mablag'ni uzoq muddatga, talab qilmasdan bankda qoldiradigan mijoz va u bankka: to'liq ishonadigan mijoz; moliyaviy bozordagi ma'lumotni to'g'ri qabul qilib, tahlil qila oladigan ziyoli mijoz; doimiy barqaror daromad manbaiga ega mijoz va sh.k.
M11	Banklararo raqobat: mohiyati shakllanishi. Raqobat kurashi tizimsizdek tuyulsa-da, bozor qatnashchilariining manfaatlarini himoya qilish borasida ma'lum bir strategiyaga asoslanadi.
M12	Bank faoliyatini strategik rejalashtirish Marketing samaradorligini oshirish maqsadida ichki hisobdorlik tizimini yaratish va uni rivojlantirish zarur. Bunda kreditlar miqdori haqida axborot olish, depozit bazasi holatini tahlil qilish, kredit qo'yilmalarining rentabilligini baholash imkoniyatini yaratadi
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:	
Amaliy mashg'ulotlar (A) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	"Bank menejment" fanning mazmuni va vazifalari
A2	Banklarda faoliyatida menejment va uning vazifakari.
A3	Bank menejmentining huquqiy asoslari.
A4	Tijorat banklari faoliyatini boshqarishni tashkil qilish asoslari
A5	Tijorat banklari faoliyatini korporativ boshqarish
A6	Tijorat banklari faoliyati moliyaviy menejment .
A7	Bank xodimlari boshqarish tizimi.
A8	Tijorat banklari faoliyatida marketing.
A9	Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish.
A10	Tijorat bankning mijozlar bozori
A11	Banklararo raqobat: mohiyati shakllanishi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Moliyaviy menejment" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish yo'llari
2.	Moliyaviy menejment – zamonaviy soha sifatida
3.	Kichik biznes subyektlarida moliyaviy menejmentni tashkil qilish xususiyatlari
4.	Qo'shma korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil qilish xususiyatlari
5.	Korxonalar moliyaviy ta'minotida fond birjalarning ahamiyati
6.	Aylamma mablag'lar samaradorligini oshirish yo'llari

7.	Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini ta'minlash yo'llari
8.	Aylamma mablag'lar aylanuvchanligiga ta'sir etuvchi omillar
9.	Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqarish yo'llari
10.	Xarajatlar samaradorligini ta'minlash yo'llari
11.	Moliyaviy risklarni kamaytirishda diversifikatsiyaning o'rni
12.	Faktoring operatsiyalarining debitorlik qarzlarni boshqarishdagi ahamiyati
13.	Pul oqimlarini harakatini samarali tashkil etish yo'llari
14.	Akreditivlarning pul oqimlari harakatini samarali boshqarishdagi ahamiyati
15.	Debitorklik va kreditorklik qarzlarni samarali boshqarish yo'llari
16.	Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish yo'llari
17.	Korxonalarda ichki moliyaviy nazorat o'tkazishning afzallik jihatlari
18.	Korxonalarning sug'urta tashkilotlari bilan aloqalarini samarali tashkil etish yo'llari

"Bank menejment" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talabalariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

"Bank menejment" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar qo'yiladi. **Talaba:**

– iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xayotning har bir sohasidagi o'zgarishlar, jumladan, jahonda sodir bo'layotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, mamlakatimizda va chet mamlakatlarda tahsil olayotgan va malakalarini oshirib qaytayotgan bilimli, malakali milliy kadrlarga talabni, e'tiborni yanada oshirish tushunchalari haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;

3.

	– bank ishi yoʻnalishi boʻyicha bakalavr oʻzining fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarligiga muvofiq quyidagi korxona va tashkilotlar, korporasiya, assosasiya, konsent, kompaniya va tadbirkorlikning turli sohalarida xodimlar bilan ishlash, mehnatni tashkil etish va boshqarish; bandlik dasturlarini ishlab chiqish va tahlil qilishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; • talaba iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qoʻllash, iqtisodiy muammolar boʻyicha echimlar qabul qilish <i>koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak</i>.
4.	VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari: • maʼruzalar; • interfaol keys-stadilar; • aqliy hujum metodi; • insert texnikasi; • muammoli masala va vaziyatlar metodi; • klaster; • konseptual jadval; • venn diagrammasi; • baliq skeleti chizmasi; • nilufar guli chizmasi.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʻliq oʻzlashtirish, tahlil natijalarini toʻgʻri aks ettira olish, oʻrganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil taʼlimda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. A.A.Azarova Bank menejmenti va marketing. Darslik - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2021, 268 b.
2. Z.T.Mamadiyarov. Banklarni transformatsiya qilish sharoitida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish: nazariya, amaliyot va xorij tajribasi. Monografiya. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2021.
3. I.R.Toymuxamedov. Bank va moliyaviy texnologiya. (Darslik).- T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2022, 306 bet.

QOʻSHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: "Oʻzbekiston" NMIU, 2024.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi

toʻgʻrisida" Farmoni. lex.uz	
3. "“Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda Farmoni.	
AXBOROT MANBALARI:	
1. https://president.uz/uz – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti	
2. https://www.imv.uz/ – Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti	
3. https://mehnat.uz/ – Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻalikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti	
4. https://gov.uz/en/miit – Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti	
5. www.stat.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.	
6. https://www.lex.uz/uz/ – Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.	
7. Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil 24" 08" dagi 1 -son bayonnomasi bilan maʼqullangan.	
8. Fan/modul uchun masʼullar:	
S.Q.Qurbonov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasini oʻqituvchisi, i.f.f.d.	
9. Taqrizchilar:	
B.Boboqulov – SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini dotsenti, i.f.n.	
A.Bektemirov – SamSI "Bank ishi" kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent.	


Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrugʻi asosida
Fan dasturlari va mustaqil taʼlim topshiriqlarini ishlab chiqishga maʼsul ishi
guruh: INSON RESURS LARI VA KAMBAKGʻALIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI



N.U.Arabov

Sh.D.Djurakulov

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU Oʻquv ishlari boʻyicha
1-proroktor:



Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti «Inson resurslarini boshqarish» kafedrası dotsenti S.B.Abduljabborovning «Bank menejmenti» faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida marketing tizimini rivojlantirish, unda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion masofaviy bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Bank mahsulotlari va xizmatlarini sotish har qanday kredit tashkiloti faoliyatida eng muhim bosqichdir. Hozirgi sharoitda bank biznesining rivojlanishi bank mahsulotlari va xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun informasion texnologiyalardan keng foydalanish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg'or bank texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, xizmatlarning jozibadorligini oshiruvchi bank uslublarini izlash bilan bog'liqdir.

Bank xizmatlari bozorida yangi kiritilayotgan usullardan foydalanayotganda bank marketingini amalga oshirish davomida bank jarayonlarini takomillashtirishga tayanib va yangi bank texnologiya- laridan foydalangan holda marketing xizmati istiqbolli mijozlarga xizmatlar to'g'risida to'liq hajmda axborot taqdim etish va shu tariqa ushbu xizmatlardan foydalanishga undaydi.

Marketing mavjud mijozlarda yangi ehtiyojlarni vujudga keltirishga o'nalgan bo'lishi lozim. Bunda reklama axboroti, matbuot, radio va televideniedan keng foydalaniladi. Shu maqsadda mijozni xabardor qilishning telemarketing, internet kabi eng yangi usullaridan ham foydalaniladi.

Natijada bank mijozlarining soni ortib, bankka qo'shimcha foyda olish imkoniyati tug'iladi, shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda bugungi kunda tijorat banklari "Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun" marketing strategiyasi asosida faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Shularni inobatga olib, «Bank menejmenti» fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:

**Samarqand davlat universiteti
«Tarmoqlar iqtisodiyoti»
kafedrası dotsenti**

i.f.n. B. Boboqulov.

Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti «Inson resurslarini boshqarish» kafedrası dotsenti S.B.Abduljabborovning «Bank menejmenti» faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Respublikasi bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida bank marketingi va menejmentining samarali boshqaruv usullaridan foydalanish masalasi o'zgacha ma'no kasb etadi.

Soha uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida Bank-moliya akademiyasi xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda to'liq qayta tashkil etiladi. Shuningdek, davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy etish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarini jalb etish boshlandi va bu jarayon izchil davom etadi.

Banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta'minotini tubdan yangilash lozim. Shu yil 1-iyulga qadar «kredit tarixi» axborot tizimini to'liq ishga tushirish zarur.

Respublikamizda bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi tizimini tubdan takomillashtirishga doir beshta yo'nalishni o'z ichiga olgan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi, ushbu muhim hujjat ijro mexanizmini namunalı tarzda yo'lga qo'yish, uni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlash yuzasidan tegishli vazirlik va tuzilmalar keng ko'lami say-harakatlar olib borishni talab etmoqda.

Shularni inobatga olib, «Bank Menejmenti» fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
«Bank ishi» kafedrası mudiri,
i.f.n., dotsent**

A. Bektemirov



THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY